

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARA VA  
NATIJALARI**

**Ibragimova Nozbegim Furqat qizi**

Romitan tumaniga qarashli 2-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

*Annotation: ushbu maqolada ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri bo`lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish me'zonlari yoritib berilgan*

*Kalit so‘zlar: innovatsiya, axborot, maktabgacha ta'lim, texnik vosita, muloqot, kompyuter, xorijiy tajriba, ta'lim.*

**Ключевые слова:** инновации, информация, дошкольное образование, технические средства, связь, компьютер, зарубежный опыт, образование.

*Keywords: innovation, information, preschool education, technical means, communication, computer, foreign experience, education.*

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmuni tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-

apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ- 2909-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o‘quv-ilmiy labaratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha Oliy ta’lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish harakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo’llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. "Ta’lim texnologiyasi" tushunchasi keng qo‘llanilishiga qaramay, juda shartli. V.I.ga ko‘ra. Zagvyazinskiy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalarning turlarini "o‘quv yoki pedagogik emas, balki o‘qitish deb atash to‘g‘riroqdir va ishlab chiqarish sohasidan olingan atamaning o‘zi, albatta, ta’limda shartli ravishda qo‘llaniladi Innovatsion usullarda dars o‘tish jarayonini, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab tashkillashtirish ta’lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang‘ich ta’lim umumiyligi o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta’lim jarayonlarining o‘tilishida ham qulayli yaratgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, boshlang‘ich ta’limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta’limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o‘taydi. Yangi texnologiyalar katta ta’lim imkoniyatlarini ochdi. Ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, odad bo‘lgan tushuntirishda "o‘rgatish" jarayonlari o‘qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladи. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko‘rgazma vositalari o‘ziga xos tarzda

yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishi anniq chunki bu o'quvchilarning bilim saviyasini oshiradi. Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ulardan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Yetuk, bilimli, barkamol kadrlarni voyaga yetkazish uchun innovotsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajribali o'qituvchilarni yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilanadi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi

shundaki, o‘qituvchi hamda o‘quvchi birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, uzlucksiz ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya’ni ta’lim sifati va samaradorlogini oshirishning an’anaviy metodlardan voz kechib, yangi media va axborot texnologiyalardan foydalanib, sifatli, zamon talabiga mos dars o‘tish va raqobatdosh kadrlarni voyaga yetkazishni taqozo etmoqda.Ushbu yo‘nalish bo‘yicha biz ishni, avvalo mактабгача ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib, bolalarga tarbiya berib kelayotgan tarbiyachilariga informatika va axborot texnologiyalari fanini chuqr singdirishdan boshlashimiz darkor.